

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

ODILOV BAXROMJON BAXTIYOROVICH

**KURASHCHILARDA RAQIBNI KO‘TARIB TASHLASH ISH
QOBILIYATI VA UNI ROTATSION-TRENAJER MASHQLAR
YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH USTUVORLIGI**

13.00.04 – Jismoniy tarbiya va sport mashg‘uloti nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq - 2023

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical science**

Odilov Baxromjon Baxtiyorovich

Kurashchilarda raqibni ko‘tarib tashlash ish qobiliyati va uni rotatsion-trenajer mashqlar yordamida rivojlantirish ustuvorligi..... 3

Odilov Baxromjon Baxtiyorovich

Бросковая работоспособность у курашистов и приоритетность её развития с использованием ротационно-тренажерных упражнений..... 27

Odilov Baxromjon Baxtiyorovich

Throttle workability of wrestlers and the priority of its development with the use of rotational exercises..... 53

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 57

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

ODILOV BAXROMJON BAXTIYOROVICH

**KURASHCHILARDA RAQIBNI KO‘TARIB TASHLASH ISH
QOBILIYATI VA UNI ROTATSION-TRENAJER MASHQLAR
YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH USTUVORLIGI**

13.00.04 – Jismoniy tarbiya va sport mashg‘uloti nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq - 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.4PhD/Ped1854 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.djtsu.uz va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Artiqov Zoxidjon Sobirovich

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Dadaboyev Odiljon Jalolidinovich

pedagogika fanlari doktori (DSc) dotsent

Xamidjonov Abdulaziz Usubjon o‘g‘li

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil “5” iyun soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tdi. Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370)-717-17-19, 717-27-27, faks: (0-370)-717-17-76, Veb-sayt: www.djtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti “B” binosi, 2-qavat, kichik majlislar zali.

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (0019 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370)-717-17-19, 717-27-27, faks: (0-370)-717-17-76.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “3” iyun kuni tarqatildi.
(2023 yil “___” _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

Il. Da

M.R. Boliabayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

M.X. Mirjamolov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.d. (DSc), dotsent

F.A. Kerimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyo miqyosida barcha sport turlari kabi sport kurashida ham iste'dodli, yuqori malakali sportchilar tayyorlash, uzoq muddatli, katta hajmli va o'ta shiddatli mashg'ulotlar, ayniqsa, tabora keskinlashib borayotgan raqobat, musobaqa yuklamalariga bardosh berish qobiliyatini oshirish, yuksak natijalarga erishish imkoniyatini kengaytirish zarurligi ustuvor vazifalardan ekanligi yaqqol ko'rinib turibdiki, bunday o'ta dolzarb muammolar hal etish uchun sportchilarda jismoniy, funksional va texnik-taktik tayyorgarlikni o'z tarkibiga oluvchi maxsus ish qobiliyatini samarali mashqlar yordamida shakllantirish, uni tiklab borish, saqlash va barqarorlashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borish bilan bir qatorda innovatsion yangilanishlarga ega bo'lgan pedagogik texnologiyalarni o'quv-mashg'ulotlarga joriy etish taqoz qilinmoqda.

Jahonda bugungi kunga kelib turli yosh va sport malakasiga ega kurashchilarni tayyorlash amaliyotida texnik-taktik harakatlarga o'rgatish, ularni takomillashtirish, jismoniy sifatlarni rivojlantirish, funksional imkoniyatlarni shakllantirish masalalari bo'yicha ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Tayyorgarlik turlari (jismoniy, psixofunksional, texnik-taktik), ularning shakllanish darajasini baholashga mo'ljallangan pedagogik testlar, tabaqalashtirilgan me'yoriy hujjatlar, mezon talablar mos majmualar, modellashtirilgan dasturlarni o'quv-mashg'ulot jarayonlariga joriy etish orqali ko'p yillik sport kurashi tayyorgarlig tizimini takomillashtirish, yangi ishlab chiqilgan dasturlar yordamida mashg'ulotlarni rejalashtirish va kurashchilarni tayyorlashga doir tadqiqotlar o'ta muhimligicha qolmoqda.

Respublikamizda malakali belbog'li kurashchilar tayyorlash amaliyoti, mahalliy mutaxassis-olimlar tomonidan ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar belbog'li kurashchilarimizni Jahon va Osiyo chempionatlari, xalqaro musobaqalarda yuksak natijalarga erishishini ta'minlashga "Kurashni yanada rivojlantirish va ommalashtirish mamlakatimizning barcha yoshdagi aholisini sog'lom turmush tarziga jalb qilish, yoshlarni Vatanga sadoqatli etib tarbiyalash, kurashni jaxon xalqlarining sevimli sport turlaridan biriga aylantirish, uning halollik, adolatlilik, bag'rikenglik kabi insonparvar g'oyalarini dunyo ahliga yanada keng targ'ib qilish, ushbu sohaga investitsiyalarni faol jalb etish orqali uni tijoratlashtirish hamda chinakam o'zbek kurashi brendini ommalashtirish"¹ vazifasi belgilab berilgan. Sport musobaqalarida raqobatning kuchayishi evaziga yurtimiz polvonlarini tayyorlashda katta hajmdagi va yuqori shiddatli yuklamalarni tashkil etadi o'quv-mashg'ulot dasturlarini ishlab chiqish va ularni samaraliy tizimlashtirish vazifalari dolzarbligicha qolmaqda. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga, ular orqali sog'lom turmush tarzini xalqimiz, ayniqsa yosh avlod hayotiga keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'kidlash joizki, hali bu borada o'rganilmagan va tadqiqot ostiga olinmagan o'ta dolzarb muammolar mavjud. Aynan shulardan biri – kurash turlarida raqibni ko'tarib tashlash usullarini ko'p martalab takrorlash hajmi va shiddati bilan bog'liq maxsus ish qobiliyatini rotatsion trenajer hamda aylanma harakat mashqlari yordamida

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 noyabrda "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4881-sonli qarori, www.Lex.uz 1-bet

shakllantirish afzalligini asoslash masalasidir. Gap shundaki, kurashchilarga xos maxsus ish qobiliyati o‘z tarkibiga deyarli barcha tayyorgarlik turlarini (jismoniy va funksonal tayyorgarlik, texnik-taktik mahorat) mujassam qilgan bo‘lib, u nafaqat yuklamalar ta’sirida toliqish tufayli tushib ketishi mumkin, balki vestibulyar analizator tomonidan boshqariladigan muvozanat saqlash turg‘unligi sust rivojlangan holatida ham samara bermasligi ehtimol qilinadi. Asosiy sabablardan biri, shuki muvozanat yo‘qolganda, harakat texnikasi va koordinatsiyasi izdan chiqadi, usullarni takrorlash soni kamayadi, vaqti esa uzayadi. Shu kabi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida tanlangan mazkur dissertatsiya ishi mavzusi o‘ta dolzarb va uni tajriba orqali asoslash o‘ta muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga molik, deb ta’kidlash maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924-son “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020 yil 30 oktabrdagi PF-6099-son “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017 yil 3 iyundagi PQ-3031-son “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13-fevraldagi 118-son “2019-2023 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori kabi konseptual me‘yoriy-huquqiy hujjatlardan tadqiqotlarda strategik dastur sifatida foydalanildi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» bilan bog‘liq ustuvor yo‘nalishga mos ravishda amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sport amaliyotida, shu jumladan, kurash turlarida ham umumiy va maxsus ish qobiliyatining asosiy tarkibiy komponentlari – jismoniy sifatlar, funksonal imkoniyatlar, texnik-taktik harakatlarini shakllantirish metodlari va vositalari, mashg‘ulot va musobaqa yuklamalari ta’sirida toliqish alomatlarining yuzaga kelishi, ularni bartaraf etish choralari, ish qobiliyatini tiklash, saqlash va oshirish masalalari yetakchi mutaxassis olimlar tomonidan fundamental tadqiqotlar asosida ochib berilgan [Л.П.Матвеев, В.Н.Платонов, Ю.В.Верхошанский, В.М.Зациорский, Ю.Ф.Курамшин, Ж.К.Холодов, В.С.Кузнецов, А.Н.Абдиев, Ф.А.Керимов, А.Н.Елов, А.Р.Таймуродов, Н.А.Тастанов, Ш.А.Мирзақулов, Е.И.Байтураев, З.А.Бакиев, Ш.С.Мирзанов, З.С.Артиков, Ш.С.Турсунов, М.М.Қирғизбоев, С.Қ.Адилов, А.Ж.Тангриев, Д.Ю.Ташназаров, Ш.Ш.Газиєв].² Sportning kurash turiga xos xususiyatlariga mos

² Л.П.Матвеев Основы общей теории спорта и системы подготовки спортсменов. Киев, 1999. – 316 с.; В.Н.Платонов Система подготовки спортсменов в Олимпийском спорте. Общая теория и ее практические приложения. Киев, Олимпийская литература, 2004., - 808 с.; Ю.В.Верхошанский Основы специальной физической подготовки спортсменов. М.: Физкультура и спорт, 2007.; Ю.Ф.Курамшин Теория и методика физической культуры: Учебник / Под ред.проф. Ю.Ф.Курамшин. 3-е изд., стереотип. М.: Советский спорт, 2007.; Ж.К.Холодов, В.С.Кузнецов Теория и методика физического воспитания и спорта: Учеб.пособие. – М.: Академия, 2008. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры / - М.: ФиС., 2008. – 404 с.; В.М.Зациорский, Физические качества спортсмена: основы теории и методики воспитания [Текст] / М: Спорт, 2019 – 200 с.;

tartibda rivojlantirish sirlari, ish qobiliyatining umumiy (aerob) va maxsus (anaerob) chidamkorlik bilan uzviy bog‘liqligi tegishli manbalarda o‘z ifodasini topgan [A.A.Новиков, F.A.Kerimov, D.Dj.Safarova, В.Ф.Бойко, Г.В.Данько, Г.С.Туманян, А.А.Карелин, С.В.Елисеев, В.В.Шиян, N.A.Tastanov].³

Kurashchilar ish qobiliyatining ayrim qirralari, jumladan, jismoniy va texnik-taktik tayyorgarlik, ularni shakllantirish masalalari yurtimiz mutaxassis olimlari tomonidan ham tadqiq qilingan, maqolalar chop etilgan, dissertatsiyalar va monografiyalar tayyorlangan [F.A.Kerimov, Z.S.Artaqov, Sh.S.Mirzanov, Sh.A.Mirzaqulov, N.A.Tastanov, M.M.Qirg‘izboev, S.Q.Adilov].⁴ Shu bilan bir qatorda, kurashchilarda raqibni ko‘tarib tashlash hajmi va shiddatini ifodalovchi maxsus ish qobiliyatining statokinetik turg‘unlik (muvozanat saqlash turg‘unligi) bilan bog‘liqligi va uni rotatsion-trenajer (aylanma harakatlanuvchi trenajer) va aylanma harakat mashqlari yordamida rivojlantirish imkoniyatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar o‘tkazilgan bo‘lsada, kurashchilarda ko‘tarib tashlash ish qobiliyatini rotatsion-trenajer mashqlar yordamida rivojlantirish ustuvorligi ilmiy izlanishlar orqali yetarli darajada yoritilmaganligi aniqlandi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya ishi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari konsepsiyasi va istiqbol rejasidagi № V 36/4 “Kurashning belbog‘li kurash turi bilan shug‘ullanadigan O‘zbekiston yoshlarining trenirovka jarayonini takomillashtirish” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kurashchilarda muvozanat saqlash turg‘unligini raqibni ko‘tarib tashlash ish qobiliyatiga ta’sir etishini aniqlash va uni aylanma harakat mashqlari va rotatsion-trenajer yordamida rivojlantirish samaradorligini oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kurashchilarda aylanma harakat yuklamalari ta’sirida hajmi va shiddati bilan bog‘liq maxsus ish qobiliyatini nazorat qilish hisobiga sportchilar qobiliyatlarini baholash imkoniyatlarini kengaytirish;

kurashchilarda muvozanat saqlash turg‘unligi darajasini oshirish uchun ko‘tarib tashlash usullarini takomillashtirish hisobiga sportchining muvozanat saqlash imkoniyatlarini kengaytirish;

kurashchilar bellashuvlarda texnik usullarni har tomonga bajara olish malakasini egallashi uchun samarali trenajerdan foydalanish orqaliy raqibni ko‘tarib turishga ketadigan vaqtni me’yorlash hisobiga harakatlar reaksiyasini baholash imkoniyatini kengaytirish;

³ Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва услубияти: Дарслик. – Т., 2001. – 285 б., Карелин А.А. Спортивная подготовка борцов высокой квалификации. Монография. //Новосибирск, 2002. – 480 с., Бойко В.Ф., Данко Г.В. Физическая подготовка борцов. Киев, Олимпийская литература, 2004. – б. 150-158., Туманян Г.С. Школа мастерства борцов, дзюдоистов и самбистов: Учеб.пособие для студ. высш. учеб. заведений. М.: Издателский центр “Академия”, 2006–591с.

⁴ Tastanov N.A. Kurash turlari nazariyasi va uslubiati. / Darslik. – Т.: “Sano-Standart”, 2017. – 480 б., Артақов З.С. Белбоғли курашда статик ва динамик кучланиш давомида мувозанат сақлаш функциясини шакллантириш методикаси/ п.ф.б.ф.д., (PhD) Автореферат., Ч., 2018. – 5-26 б.

kurashchilarning taktik tayyorgarligini takomillashtirishda ixtisoslashtirilgan yordamchi mashqlar majmualarini kiritish hisobiga hujum harakatlarining samaradorligini oshirish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida talim oluvchi malakali belbog'li kurashchilarning o'quv mashg'ulotlari jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini kurashchi talabalarda aylanma harakatlar ta'sirida muvozanat saqlash, raqibni ko'tarib tashlash hajmi va shiddati bilan bog'liq maxsus ish qobiliyatini takomillashtiruvchi mashqlar olingan.

Tadqiqotning usublari. Tadqiqotning ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlili, pedagogik kuzatuv, so'rovnoma, raqibni ko'tarib tashlash hajmi va shiddati bilan bog'liq jismoniy sifatlar hamda uning integrallashgan shakli – maxsus ish qobiliyatini baholashga mo'ljallangan pedagogik testlar, vestibuloxronometriya, pulsometriya, nafas olish ritmini aniqlash testi, pedagogik tajriba, matematik statistika kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kurashchilarda aylanma harakat yuklamalari ta'sirida muvozanat saqlash raqibni ko'tarib tashlash hajmi va shiddati bilan bog'liq maxsus ish qobiliyatini oshiruvchi mashqlarni anaerob sharoitda bajarish asosida nazorat qilishga mo'ljallangan samarali pedagogik monitoring tizimini ishlab chiqish hisobiga sportchilar qobiliyatlarini baholash imkoniyatlari oshirilgan;

kurashchilarda muvozanat saqlash turg'unlik jarayoni davomiyligini taminlash uchun raqibni ko'tarib tashlash harakatini bajarishdagi kuch hajmi va ish qobiliyatini portlovchi kuch sifatini rivojlantiruvchi mashg'ulotlar shiddatini oshirish asosida qulay va noqulay tomonlarga bajariladigan texnik harakatlarini elementlarga bo'lib takomillashtirish hisobiga sportchining vestibulyar analizatorning mashqlanganlik darajasini oshirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

kurashchilarni bellashuvlarda texnik usullarni har ikki tomonga bajara olish malakasini egallash va shoh usullarini shakllantirishda koordinatsion qobiliyatlarini "POTATOP-BO" trenajeridan o'quv-mashg'ulot jarayonlarida foydalanish orqali raqibni ko'tarib turishga ketadigan vaqtlarini me'yorlash metodikasida salbiy ta'sir ko'rsatadigan fazalarini aniqlash hisobiga harakatlar reaksiyasini baholash imkoniyatlari kengaytirilgan;

kurashchilarni taktik tayyorgarligini takomillashtirish uchun muvozanat saqlash turg'unligini aylanma harakatlar ta'sirida rivojlantirishda yuqori amplitudada bajariladigan texnik usullarni imitatsiyasini bajarishdagi ish qobiliyatini integral tartibda shakllantirishga asoslangan ixtisoslashtirilgan yordamchi mashqlar majmualarini kiritish hisobiga musobaqa bellashuvlarida hujum harakatlarining samaradorligi oshirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kurashchilarda tanani chap va o'ng tomonlarga aylantirish ta'sirida muvozanat saqlash, raqibni ko'tarib tashlash hajmi va shiddatini ifodalovchi maxsus ish qobiliyatini baholashga qaratilgan pedagogik yondashuvlardan foydalanish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

sportning kurash turlarida raqibni ko‘tarib tashlash hajmi va shiddatini oshirish, bunday usullar texnikasi va koordinatsiyasini mashg‘ulot hamda musobaqalar davomida saqlab qolish uchun shu usullarni turli yo‘nalishlarda ijro etiladigan aylanma harakatlar ta’sirida takomillashtirish zarurligi haqida uslubiy ishlanmalar yaratilgan;

kurashchilarda aylanma harakatlar ta’sirida muvozanat saqlash turg‘unligi, raqibni ko‘tarib tashlash hajmi va shiddati bilan bog‘liq maxsus ish qobiliyatini ishlab chiqilgan “rotatsion” trenajer (aylanma harakatlanuvchi) dan foydalanish metodikasi kurashchi talabalar va belbog‘li kurash bo‘yicha terma jamoalar tarkibida shug‘ullanuvchi kurashchilar mashg‘ulotlariga tatbiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan natijalarning ishonchliligi tadqiqotda qo‘llanilgan pedagogik testlarning “test-retest” sinovlaridan o‘tkazilganligi, tegishli kurash federesiyalari ekspertlari tomonidan ushbu testlar ob‘ektivligining tasdiqlanganligi, testlarni qo‘llash davomida yagona standart qoidalar va shart-sharoitlarga rioya qilinganligi, olingan natijalarni tabaqalashtirilgan holda guruhlar va guruhlararo kesimda matematik statistika usullari yordamida qiyosiy tahlil qilinganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kurash turlariga xos nazariy ahamiyati shundan iboratki, ishda, birinchidan, kurashchilarda raqibni ko‘tarib tashlash hajmi va shiddati bilan bog‘liq maxsus ish qobiliyati aylanma harakatlar ta’sirida qayd etiladigan muvozanat saqlash turg‘unligiga asoslanishi isbotlangan, ikkinchidan kurashchilarda aylanma harakatlar ta’sirida qayd etiladigan muvozanat saqlash turg‘unligi sust bo‘lsa, bunday holat raqibni ko‘tarib tashlash hajmi va shiddatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan, uchinchidan mazkur holat kurashchilarda muvozanat saqlash funksiyasini boshqaruvchi markaz – vestibulyar analizatorning yetarli rivojlanmaganligi tufayli yuz berishi haqidagi ilmiy fikrni ilgari surilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kurashchilarda aylanma harakatlar dinamik muvozanatni saqlash turg‘unligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi va buning asosida raqibni ko‘tarib tashlash hajmi va shiddatining tushib ketishi tufayli ana shu muvozanat saqlash qobiliyatini turli aylanma harakatlardan iborat statokinetik mashqlar, ayniqsa, ishlab chiqilgan “rotatsion” trenajer yordamida samarali rivojlantirish mumkinligi va shuning uchun ushbu toifadagi mashqlar hamda mazkur trenajerni kurashchilar tayyorlash amaliyotiga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kurashchi talabalarda olib borilgan joriy tadqiqotlar va pedagogik tajriba natijalari, ularning qiyosiy tahliliga asoslangan holda:

kurashchilarda aylanma harakat yuklamalari ta’sirida muvozanat saqlash raqibni ko‘tarib tashlash hajmi va shiddati bilan bog‘liq maxsus ish qobiliyatini oshiruvchi mashqlarni anaerob sharoitda bajarish asosida nazorat qilishga mo‘ljallangan samarali pedagogik monitoring tizimini qo‘llash bo‘yicha takliflar “Xalqaro kurash turlari nazariyasi va uslubiyati” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 4 maydagi 285-sonli buyrug‘iga asosan 237-264 raqamli guvohnoma). Natijada, tajribada ishtirok etgan malakali belbog‘li kurashchilarda manekenni ko‘tarib, tanani turli tomonlarga

aylantirish ta'sirida muvozanat saqlash turg'unligi samaradorligi 17,84–23,42% gacha o'sgan;

kurashchilarda muvozanat saqlash turg'unlik jarayoni davomiyligini ta'minlash uchun raqibni ko'tarib tashlash harakatini bajarishdagi kuch hajmi va ish qobiliyatini, portlovchi kuch sifatini rivojlantiruvchi mashg'ulotlar shiddatini oshirish asosida qulay va noqulay tomonlarga bajariladigan texnik harakatlarini elementlarga bo'lib takomillashtirish bo'yicha takliflar sport pedagogik mahoratini oshirish mashg'ulotlariga tatbiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligini 2022-yil 28 martdagi 06-13/425 – sonli ma'lumotnomasi). Natijada tajribada ishtirok etgan malakali belbog'li kurashchilarda manekenni turli usullar yordamida qulay va noqulay tomonlarga ko'tarib tashlash bilan bog'liq maxsus ish qobiliyatining pulsometrik ko'rsatkichlariga muvofiq ravishda 9,09–10,50% ga, respirator qiymati 13,45–14,86% gacha ijobiy tomonga o'zgarganligi yurak va nafas olish funksiyalari tejamlil ishlash rejimiga moslashganligi yaxshilangan;

kurashchilarni bellashuvlarda texnik usullarni har ikki tomonga bajara olish malakasini egallash va shoh usullarini shakllantirishda koordinatsion qobiliyatlarini "POTATOP-BO" trenajeridan o'quv-mashg'ulot jarayonlarida foydalanish bo'yicha takliflar Chirchiq olimpiya zaxiralari kollejida belbog'li kurash mashg'ulotlariga tatbiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligining 2022-yil 28 martdagi 06-13/425–sonli ma'lumotnoma). Natijada ushbu sifatlar muvofiq ravishda 22,25–25,59% ga, 21,13–22,97% ga va 18,49–20,61% gacha o'sgan;

kurashchilarni taktik tayyorgarligini takomillashtirish uchun muvozanat saqlash turg'unligini aylanma harakatlar ta'sirida rivojlantirishda yuqori amplitudada bajariladigan texnik usullarni imitatsiyasini bajarishdagi ish qobiliyatini integral tartibda shakllantirish bo'yicha takliflar "Xalqaro kurash turlari nazariyasi va uslubiyati" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 4 maydagi 285-sonli buyrug'iga asosan 237-264 raqamli guvohnomasi). Natijada tadqiqot natijalari va amaliy tavsiyalarni mashg'ulotlar jarayoniga tatbiq etilishi tufayli 2021 yilda o'tkazilgan mamlakat chempionati hamda Kubok musobaqalarida 7 nafar talaba g'olib va sovrindorlar ro'yxatidan joy oldi, musobaqa natijadorligi esa 23,7% ga ortganligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 5 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazildi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola (2 ta respublika va 1 ta xorijiy ilmiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya "Kirish", 4 ta bob, xulosalar va amaliy tavsiyalar, ilovalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat bo'lib, matni 180 betni tashkil etadi. Dissertatsiyada 20 ta jadval va 29 ta rasmlarda qayd etilgan diagrammalardan foydalanilgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiyada ko'tarilgan muammoning o'rganilganlik holati, mavzuni dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti aniqlangan. Tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi borasidagi ma'lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning **“Kurash amaliyotida maxsus ish qobiliyati va uning tarkibiy komponentlarini rivojlantirish va baholash masalalari”** deb nomlangan birinchi bobida yuklamalar hajmi va shiddatiga bardosh berish yoki yengish imkoniyatini yaratuvchi ish qobiliyatining jismoniy, psixofunksional va texnik-taktik komponentlari, ularni kurash turlaridagi o'ziga xos xususiyatlari bibliografik manbalar tahliliga asosan ochib berilgan. Jumladan, ish qobiliyatining asosiy komponentlaridan bo'lgan jismoniy sifatlar (kuch, tezkorlik, chaqqonlik kabi koordinatsion qobiliyatlar, chidamkorlik va egiluvchanlik) yetakchi mutaxassis olimlar tomonidan (Л.П.Матвеев, В.Н.Платонов, Ж.К.Холодов, В.С.Кузнецов, А.М.Максименко, Ю.Ф.Курамшин, М.А.Годик, Г.С.Туманян, А.А.Карелин, В.Ф.Бойко, Г.В.Данко, Ф.А.Керимов) turlicha ketma-ketlikda izohlangan bo'lib, har bir kurash turida ularning ulushli hissasi turlicha ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan. Funksional imkoniyatlarga asoslangan ish qobiliyatining jismoniy komponentlari va ularni barcha kurash turlarida o'ziga xos yo'nalishlarda tarbiyalash zarurligi yoritilgan. Shu bilan bir qatorda, kurash amaliyotida ish qobiliyatini integral rivojlantirish, lekin ularni baholashda tabaqalashtirilgan tamoyilga asoslanish afzalligi qayd etilgan. Ayniqsa, malakali belbog'li kurashchilar tayyorlash bosqichlarida jismoniy, funksional va texnik-taktik tayyorgarlik turlariga asoslangan maxsus ish qobiliyatini ixtisoslashtirilgan yo'nalishda shakllantirish zarurligi ta'kidlangan Kurashchilarga xos ish qobiliyati va uning tarkibiy komponentlarini mashg'ulot hamda musobaqalar davomida saqlab qolish imkoniyatini yaratish uchun mashqlar seriyalari va yuklamalar yakunida uni tiklab borish muhim ahamiyatga ega ekanligi ochib berilgan. Chunki belbog'li kurashda ish qobiliyatini samarali amalga oshirishda muvozanat saqlash turg'unligining ahamiyati va zarurligi deyarli o'rganilmagan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot metodlari va uni tashkil qilish”** deb nomlangan ikkinchi bobida malakali belbog'li kurashchilar misolida raqibni ko'tarib tashlash hajmi va shiddati bilan bog'liq ish qobiliyati, uning jismoniy va texnik komponentlariga ta'sir etuvchi muvozanat saqlash turg'unligini o'rganish maqsadida qo'llanilgan pedagogik kuzatuv, so'rovnomalar, pedagogik testlar, ularning funksional qiymatini ifodalovchi fiziologik testlar (yurak qisqarishi va nafas olish sur'ati) ning mohiyati, mazmuni va qo'llash texnologiyasi ochib berilgan. Tadqiqotlar 2017 yil sentabr va 2020 yil mart oylari davomida 3 bosqichda o'tkazilgan: 1-bosqichda (2017 yil sentabr-dekabr) O'zDJTSU ning milliy kurash turlari nazariyasi va uslubiyati

kafedrasida ta'lim oluvchi malakali belbog'li kurashchilar bilan o'tkazilgan mashg'ulotlar pedagogik kuzatuv ostiga olingan. Shu muddat davomida an'anaviy mashg'ulotlarni o'tkazish tajribasini o'rganish maqsadida kurashchi va murabbiylardan iborat respondentlar bilan so'rovnoma tashkil etilgan. 2-bosqichda (2018 yil yanvar – 2019 yil avgust) joriy tadqiqotlar o'tkazilgan, joriy tadqiqotlarga $n=15 \times 4=60$ nafar 61-66 kg, $n=15 \times 4=60$ nafar 67-73 kg vazn toifalariga mansub belbog'li kurashchilar jalb qilingan. 3-bosqichda (2019 yil sentabr – 2020 yil mart) pedagogik tajriba tashkil etilgan. Tajribaga 67-73 kg vazn toifasiga ega, har biri 12 nafardan iborat nazorat (NG) va tajriba (TG) guruhlari jalb qilingan. NG tajriba davomida an'anaviy mashg'ulotlarda shug'ullanishni davom ettirgan, TG da esa dissertant tomonidan ishlab chiqilgan eksperimental mashqlar (aylanma harakatlar ta'sirida qayd etilgan muvozanat saqlash turg'unligi va raqibni ikki tomonga ko'tarib tashlash ish qobiliyatini shakllantiruvchi mashqlar) va ushbu qobiliyatlarni rivojlantiruvchi "POTATOP-BO" trenajeri qo'llanilgan. Olingan natijalar matematik statistika usullari yordamida qiyosiy tahlil qilingan va ular amaliy tavsiyalar shaklida amaliyotga joriy etilgan.

Dissertatsiyaning **"Malakali belbog'li kurashchi talabalar bilan o'tkaziladigan an'anaviy mashg'ulotlar davomida raqibni ko'tarib tashlash qobiliyatining shakllanish sur'ati va unga muvozanat saqlash turg'unligining ta'sir etishi"** deb nomlangan uchinchi bobida joriy tadqiqotlar natijalari qiyosiy tahlil qilingan. Jumladan, pedagogik kuzatuv natijalaridan ma'lum bo'ldiki, an'anaviy mashg'ulotlarda (36 ta mashg'ulot) raqibni kutarib tashlash usullarini shakllantirish maqsadida qo'llaniladigan mashqlar soni 13,7-31,7 martani tashkil etgan bo'lsa, ularning har biriga 12,7-31,2 soniya vaqt sarflanar ekan. Ushbu mashg'ulotlarda raqibni noqulay tomonga ko'tarib tashlash usullari va ushbu jarayonda muxim rol o'ynovchi muvozanat saqlash turg'unligini takomillashtiruvchi mashqlar deyarli qo'llanilmas ekan. Mazkur holat so'rovnoma natijalari bilan ham tasdiqlandi. Maxsus ish qobiliyatining asosiy komponentlaridan biri bo'lgan jismoniy tayyorgarlik imkoniyatlari ham sust rivojlanganligi va o'quv-mashg'ulot yilida jadal o'smaganligi kuzatildi. Masalan, maksimal dinamik kuchni ifodalovchi turnikda imkon boricha ko'proq tortilish soni 61-66 kg vazn toifasidagi kurashchilarda o'quv yili davomida (10 oy) $15,3 \pm 2,05$ martadan $16,7 \pm 2,16$ martagacha, 67-73 kg vazn toifasidagi kurashchilarda esa $13,6 \pm 1,72$ martadan $15,5 \pm 2,06$ martaga ortgan. Brusyada qo'llarni bukish-yozish soni muvofiq ravishda: $16,8 \pm 2,17$ – $17,3 \pm 2,39$ marta va $14,6 \pm 1,77$ – $15,5 \pm 2,11$ marta bilan ifodalangan. Mazkur testlarni 10 soniya ichida bajarish soni ham jadal o'smagani aniqlandi. Tezkorlik va umumiy chidamkorlik ko'rsatkichlari malakali kurashchilarga xos darajada qayd etilmagani kuzatildi. Manekenni qulay tomondan hamda noqulay tomonga ko'tarib tashlash hajmi ham, jiddati ham yetarli ko'rsatkichlar bilan qayd etilmadi. Jumladan, manekenni qulay va noqulay tomonga ko'tarib tashlash hajmi hamda shiddati bir-biridan keskin farq qiluvchi ko'rsatkichlar bilan qayd etildi (1-jadvalga qarang).

Belbog‘li kurashchi talabalar va trenerlardan iborat respondentlar bilan o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari

T/r	Savollar	Kurashchilar n=50		Trenerlar n=20	
		ha	yo‘q	ha	yo‘q
1.	Raqibni yoki manekenni ko‘tarib tashlashda usullarni noqulay tomondan qo‘llab borasizmi?	$\frac{7}{14}$	$\frac{43}{86}$	$\frac{5}{25}$	$\frac{15}{75}$
2.	Raqibni yoki manekenni noqulay tomonga ko‘tarib tashlash usullarini qo‘llab borasizmi?	$\frac{7}{14}$	$\frac{43}{86}$	$\frac{6}{30}$	$\frac{14}{70}$
3.	Raqibni yoki manekenni ma‘lum vaqt ichida noqulay tomondan ko‘tarib tashlash sonini nazorat qilasizmi?	$\frac{3}{6}$	$\frac{47}{94}$	$\frac{8}{40}$	$\frac{12}{60}$
4.	Raqibni yoki manekenni ma‘lum vaqt ichida noqulay tomonga ko‘tarib tashlash vaqtini nazorat qilasizmi?	$\frac{15}{30}$	$\frac{35}{70}$	$\frac{11}{55}$	$\frac{9}{45}$
5.	Raqibni yoki manekenni yelkaga ko‘tarib, o‘ng va chap tomonga egilish mashqini qo‘llaysizmi?	$\frac{18}{36}$	$\frac{32}{64}$	$\frac{16}{80}$	$\frac{4}{20}$
6.	Raqibni yoki manekenni yelkaga ko‘tarib, o‘ng va chap tomonga burilish mashqini qo‘llaysizmi?	$\frac{21}{42}$	$\frac{29}{58}$	$\frac{17}{85}$	$\frac{3}{15}$
7.	Raqibni yoki manekenni yelkaga ko‘tarib, o‘ng va chap tomonga aylanish mashqini qo‘llaysizmi?	$\frac{17}{34}$	$\frac{33}{66}$	$\frac{13}{65}$	$\frac{7}{35}$
8.	Raqibni yoki manekenni ko‘tarib, oldinga va orqaga egilish mashqini qo‘llaysizmi?	$\frac{13}{26}$	$\frac{37}{74}$	$\frac{9}{45}$	$\frac{11}{55}$
9.	Tik turgan holatda boshni o‘ng va chap tomonga aylantirish mashqini qo‘llaysizmi?	$\frac{28}{56}$	$\frac{22}{44}$	$\frac{14}{70}$	$\frac{6}{30}$
10	Raqibni yoki manekenni belda ko‘tarib, 90° oldinga egilgan holatda chap va o‘ng tomonga aylantirish mashqini qo‘llaysizmi?	$\frac{3}{6}$	$\frac{47}{34}$	$\frac{6}{30}$	$\frac{14}{70}$
11	Muvozanat saqlash sust shakllangan bo‘lsa, raqibni ko‘tarib tashlash texnikasi va samaradorligi susayadimi?	$\frac{14}{28}$	$\frac{36}{72}$	$\frac{13}{65}$	$\frac{7}{35}$
12	Qayd etilgan savollarning nazariy mohiyati va amaliy ahamiyatini bilasizmi?	$\frac{2}{4}$	$\frac{48}{96}$	$\frac{7}{35}$	$\frac{13}{65}$

Izoh: –suratda – javoblar soni; maxrajda – javoblar foizi.

Jumladan, manekenni 10 soniya ichida o‘ng-qulay tizza yordamida ko‘tarib tashlash soni 61-66 kg vazn toifasidagi kurashchilarda dastlab (o‘quv yili boshida) $5,03 \pm 0,52$ martani, 10 oydan so‘ng (o‘quv yili yakunida) $5,25 \pm 0,54$ martani tashkil etgan bo‘lsa, 67-73 kg vazn toifasidagi kurashchilarda ushbu ko‘rsatkichlar muvofiq ravishda $5,47 \pm 0,59$ va $5,78 \pm 0,65$ marta bilan ifodalandi. Mazkur usulni chap-noqulay tizza yordamida ko‘tarib tashlash soni nisbatan kam bo‘lgan, uning o‘zgarish dinamikasi o‘xshash yo‘nalishda qayd etilgan.

Manekenni tizza va ko‘krak orqali ko‘tarib tashlash bo‘yicha qo‘llanilgan test yuklamalarining funksional qiymatlari usullarning qulay va noqulay tomonlarga ijro etishiga qarab o‘ziga xos ko‘rsatkichlar bilan qayd etildi. Masalan, barcha testlardan avval YuQS 61-66 kg vazn toifasidagi kurashchilarda o‘quv yili boshida $67,7 \pm 3,13$ – $69,6 \pm 3,85$ zarba/daq., o‘quv yili yakuniga kelib $63,4 \pm 2,27$ – $67,2 \pm 3,03$ zarba/daq chegarasida namoyon bo‘ldi. 67-73 kg vazn toifasidagi kurashchilarda bu ko‘rsatkichlar muvofiq ravishda $65,9 \pm 4,17$ – $68,5 \pm 3,77$ va $65,7 \pm 3,39$ – $68,3 \pm 3,48$ zarba/daq bilan ifodalandi.

Manekenni qulay tomonga ko‘tarib tashlash testlari tasirida YuQS muvofiq ravishda: 1-guruhda $135,3 \pm 4,14$ – $138,7 \pm 3,76$ va $130,4 \pm 2,35$ – $131,3 \pm 3,07$ zarba/daq

gacha, 2-guruhda $131,5 \pm 3,75$ – $129,6 \pm 3,05$ va $127,4 \pm 3,87$ – $121,3 \pm 2,66$ zarba/daq gacha ko‘tarilgan bo‘lsa, manekenni noqulay tomonga ko‘tarib tashlash testlari yuklamasi ta‘sirida esa YuQS 1-guruhda $138,5 \pm 4,83$ – $136,5 \pm 3,77$ va $135,3 \pm 3,77$ – $133,4 \pm 3,19$ zarba/daq gacha, 2-guruhda $137,7 \pm 3,78$ – $134,2 \pm 3,11$ va $135,3 \pm 3,18$ – $133,7 \pm 2,75$ zarba/daq gacha ortganligi aniqlandi. Yuklamalar tugagandan 3 daq. o‘tgandan keyin, ayniqsa manekenni noqulay tomonga ko‘tarib tashlash testlari yuklamasidan so‘ng, YuQS ning tiklanish sur‘ati ikki vazn toifasidagi kurashchilarda ham sust kechgani kuzatildi. Test yuklamalaridan so‘ng 3 daq. o‘tganidan keyin ham NOS ning tiklanishi aynan “noqulay testlar” dan so‘ng sust kechgani aniqlandi. Ushbu testlar yuklamalarining pulsometrik (YuQS) va respirator (NOS) qiymatlari ham “noqulay” usullar ta‘sirida keskin ortib ketgani va yuklamadan keyin 3 daq o‘tgandan so‘ng YuQS hamda NOS ko‘rsatkichlarining sust tiklanganini ko‘rsatdi.

Malakali belbog‘li kurashchi talabalarda manekenni yelkada ko‘tarib turli holatlardan tanani chap-qulay tomonga aylantirish ta‘sirida qayd etilgan muvozanat saqlash turg‘unligining tanani o‘ng-noqulay tomonga aylantirish ta‘sirida keskin tushib ketishi kuzatildi (2-jadvalga qarang).

2-jadval


O‘rta vazn toifasiga mansub malakali belbog‘li kurashchi-talabalarda maneken bilan turli holatlarda tanani chap va o‘ng tomonga aylantirish ta‘sirida muvozanat saqlash turg‘unligini o‘quv yili davomida o‘zgarish dinamikasi ($\bar{X} \pm \sigma$)

Nazorat mashqlari	2017 yil, sentyabr		2018 yil, iyun		Ko‘rsatkichlar farqi	
	61-66 kg. 1	67-73 kg. 2	61-66 kg. 1	67-73 kg. 2	1	2
Manekenni yelkaga ko‘tarib, 90° oldinga egilgan holatda tanani chap tomonga aylantirish ta‘sirida muvozanat saqlash (soniya)	33,4±2,13	35,5±3,65	35,9±3,67	37,9±3,91	1,5	2,4
Shu test tanani o‘ng tomonga aylantirib bajariladi (soniya)	22,3±2,13	23,7±2,26	23,6±2,07	25,9±2,52	1,3	2,2
Manekenni ko‘krakda ko‘tarib, orqaga egilgan holatda tanani chap tomonga aylantirish ta‘sirida muvozanat saqlash (soniya)	18,3±1,32	19,5±2,06	19,8±2,04	20,7±2,13	1,5	1,2
Shu test tanani o‘ng tomonga aylantirib bajariladi (soniya)	13,7±1,48	15,3±1,67	14,9±1,55	15,8±1,72	0,5	0,3

Izoh: - manekenni og‘irligi – 50 kg; manekenni ko‘tarib, chap va o‘ng tomonga aylantirish diametri 1 m bo‘lgan aylana chiziq ichida bajariladi.

Masalan, mazkur ko‘rsatkich (maneken bilan 90° oldinga egilgan xolatda tanani chap va o‘ng tomonga aylantirish ta‘siridagi) 61-66 kg vazn toifasidagi kurashchilarda o‘quv yili boshida $33,4 \pm 2,13$ soniyadan $22,3 \pm 2,13$ s gacha, o‘quv yili yakunida $35,9 \pm 3,67$ soniyadan $23,6 \pm 2,07$ soniyagacha qisqarib ketdi. 67-73 kg vazn toifasidagi kurashchilarda esa ushbu ko‘rsatkichlar muvofiq ravishda $35,5 \pm 3,65$ – $23,7 \pm 2,26$ va $37,9 \pm 3,91$ – $25,9 \pm 2,52$ soniyani tashkil etdi.

Gavdani orqaga egilgan holatida o'ng va chap tomonga aylantirish ta'sirida muvozanat saqlash turg'unligi ham shunday dinamika bilan qayd etildi. Ikki holatda ham va ikki guruhda ham asimmetrik farq ortdi (1-rasmga qarang).



Izoh: A – 61-66 kg vazn toifasidagi kurashchilar ko'rsatkichlari;
B – 67-73 kg vazn toifasidagi kurashchilar ko'rsatkichlari;

1 – 2017 yil sentyabr – o'quv yili boshida; 2 – 2018 yil iyun – o'quv yili yakunida.

1-rasm. 61-66 va 67-73 kg vazn toifasidagi kurashchilarda manekenni ko'tarib, gavdani orqaga egilgan holatida tanani chap – qulay va o'ng – noqulay tomonlarga aylantirishda qayd etilgan muvozanat saqlash turg'unligi o'rtasida aniqlangan asimmetrik farq ko'rsatkichlari.

Manekenni ko'krakda ko'tarib, orqaga egilgan holda tanani dastlab chap, keyin o'ng tomonga aylantirish ta'sirida muvozanat saqlash turg'unligi yanada keskin kamayib ketganligi kuzatildi. Vaholanki, bellashuvlar jarayonida belbog'li kurashchi raqibi bilan goh tayanch holatda, goh biri ikkinchisini ko'targan holatda o'ng tomonga ham, chap tomonga ham aylanish harakatlarini ko'p martalab takrorlashi mumkin. Tinch holatda tanani aylantirmasdan manekenni tizza va ko'krak orqali faqat qulay tomonlarga ko'tarib tashlash davomida shu usullarni takrorlash hajmi ham ($5,01 \pm 0,43$ – $5,79 \pm 0,66$ marta), shu usullarni ijro etish vaqti ham ($24,7 \pm 3,03$ – $28,1 \pm 3,36$ s.) nisbatan ijobiy, deb baholanishi mumkin. Ammo manekenni ko'tarib, tanani 10 marta chap-qulay tomonga aylantirish ta'sirida manekenni ko'tarib tashlash hajmi – soni ($2,22 \pm 0,25$ – $3,67 \pm 0,35$ marta) keskin kamaygani, vaqti-shiddati esa ($26,3 \pm 3,45$ – $29,4 \pm 3,95$ s.) yaqqol uzaygani kuzatildi.

Mazkur ko'rsatkichlar manekenni ko'tarib, tanani 10 marta o'ng-noqulay tomonga aylantirish ta'sirida uni ko'tarib tashlash soni $1,43 \pm 0,29$ – $1,97 \pm 0,46$ martagacha kamaygani, vaqti – $21,5 \pm 1,19$ – $25,5 \pm 3,04$ s. ga teng bo'lgani kuzatildi. Bunday holatda usullarni bajarish texnikasi (harakat koordinasiyasi) keskin “buzilganligi” bilan ajralib turadi (3-jadvalga qarang).


3-jadval

O'rta vazn toifasiga mansub malakali belbog'li kurashchi talabalarda tinch holatda va tanani chap – qulay tomonga aylantirish ta'sirida manekenni ko'tarib tashlash bilan bog'liq maxsus ish qobiliyatini o'quv yili davomida o'zgarish dinamikasi ($\bar{X} \pm \sigma$)

Nazorat mashqlari	2017 yil, sentyabr		2018 yil, iyun		O'sish sur'ati	
